

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**29 248**

117,3 %



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**27 677**

115,7 %



## Yangi tashkil etilgan korxonalar


**3 622**

65,6 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra)

5



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

6

24  
aksiyadorlik  
jamiyati

134  
unitar  
korxona

314  
boshqalar

5 201  
oilaviy korxona

7 405  
xususiy korxona

10 866  
mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

**23 944**

tijorat korxonalarini

## Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-iyul oylarida, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida, birlikda)

7



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2021- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021- yil yanvar-iyul oylarida 3 622 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 909 ta, xususiy korxonalar – 653 ta, oilaviy korxonalar – 931 ta, muassasalar – 59 ta va boshqalar – 70 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra 5 708 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 099 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 201 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 883 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 931 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 214 taga yoki 3,4 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 11 350 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 443 taga yoki 127,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 866 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 231 taga yoki 125,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 909 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 534 taga yoki 1,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 523 tani tashkil etib, ulardan 496 tasi yoki 94,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 108 taga yoki 127,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 97 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati  
cheklangan jamiyatlar soni**  
(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

11




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>4 303</b>	<b>5 356</b>	<b>7 014</b>	<b>8 635</b>	<b>10 866</b>
<b>shu jumladan:</b>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	334	581	718	1 101	1 553
<b>Sanoat</b>	701	847	1 174	1 354	1 707
<b>Qurilish</b>	718	885	1 173	1 479	1 743
<b>Savdo</b>	1 338	1 586	2 143	2 663	3 454
<b>Tashish va saqlash</b>	476	512	580	613	638
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	169	199	269	340	397
<b>Axborot va aloqa</b>	69	74	94	107	136
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	36	59	86	97	145
<b>Boshqa turlar</b>	462	613	777	881	1 093

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	62	107	287	388	496
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10	28	80	97	110
Sanoat	34	39	76	106	130
Qurilish	1	4	15	21	37
Savdo	7	22	74	118	161
Tashish va saqlash	4	5	7	5	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	1	13	17	23
Axborot va aloqa	1	1	2	2	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	3	4	8
Boshqa turlar	4	6	17	18	19

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>496</b>	<b>141</b>	<b>355</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>257</b>	<b>33</b>	<b>224</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>6</b>	<b>5</b>	<b>1</b>
<b>Angor</b>	<b>21</b>	<b>5</b>	<b>16</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1</b>	<b>-</b>	<b>1</b>
<b>Boysun</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>15</b>	<b>6</b>	<b>9</b>
<b>Denov</b>	<b>16</b>	<b>9</b>	<b>7</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>15</b>	<b>9</b>	<b>6</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>10</b>	<b>1</b>	<b>9</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>19</b>	<b>10</b>	<b>9</b>
<b>Termiz</b>	<b>48</b>	<b>19</b>	<b>29</b>
<b>Uzun</b>	<b>35</b>	<b>17</b>	<b>18</b>
<b>Sherobod</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>15</b>	<b>7</b>	<b>8</b>

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,2 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,8 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,1 %), Qiziriq (4,9 %), Boysun (4,8 %), Angor (4,8 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (4,0 %) va Bandixon tumanlarida (1,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (19,6 %), Denov (10,8 %), Sherobod (8,2 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sho'rchi (7,2 %), Qumqo'rg'on (6,3 %), Uzun (5,6 %), Termiz (5,5 %), Sariosiyo (5,3 %), Angor (5,1 %), Boysun (4,6 %), Muzrabot (4,5 %), Qiziriq (4,2 %), Bandixon (3,4 %) va Oltinsoy (2,5 %) ulushiga ega.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni


(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

16



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,6 %), Termiz (9,2 %), Denov (9,1 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sherobod (6,2 %), Boysun (5,3 %), Sho'rchi (5,2 %), Qumqo'rg'on (4,9 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,6 %) va Bandixon (2,0 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021-yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar-iyul oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (11,8 %), Termiz sh. (11,4 %), Uzun (11,0 %), Sariosiyo (9,9 %), Sherobod (7,5 %), Jarqo'rg'on (6,8 %), Qumqo'rg'on (6,0 %), Sho'rchi (5,5 %), Angor (5,3 %), Muzrabot (5,1 %), Qiziriq (4,4 %), Boysun (4,3 %), Bandixon (4,1 %), Oltinsoy (3,5 %) va Termiz (3,4 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, and a search bar with the placeholder "Qidirish". The menu bar at the top has categories: ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, and KONTAKTLAR.

The central part of the page features a search form for "Statistik klassifikatsiyalar". The search input field contains the text "Kodini kiriting" (Enter code). Below the input field, there is a placeholder "Rasmidagi kodni kiriting" (Enter the code from the document). A "Qidiruv" (Search) button is located at the bottom right of the search area. To the left of the search form, there is a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with a list of links: El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. To the right of the search form, there is another sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links: Aholini ro'yxtarga olish-2022, Harakatlar strategiyasi, Press-rezizlar, Choraklik natijalar, Nashriar – statistika haqida, Uslubly materiallar, and Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**